

O'ZBEKISTONDA MILLIYLIKNI SAQLAB QOLISHDA TASVIRIY SAN'ATNING O'RNI VA JAMIYATDAGI USTUVOR YO'NALISHLAR

Shokiraliyev Asliddin Jamoliddin o'g'li
*Farg'ona davlat universiteti tasviriy san'at va
muhandislik grafikasi yo'nalishi talabasi*

Annontatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonda milliylikni saqlab qolishda tasviriy san'atning o'rni va jamiyatdagi ustuvor yo'nalishlari to'g'risida fikir yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, milliylik, madaniyat, tasviriy san'at.*

Mustaqillik yillarida o'zbek grafik rassomlarining ijodida milliylik va zamonaviylikni uyg'un tarzda rivojlanayotganligi yaqqol ko'zga tashlandi. Keksa va O'rta avlod rassomlari Q.Basharov, M.Kagarov, M.Sodiqovlar bilan bir qatorida V.Apuxin, G.Boymatov, A.Mamajonov, B.Ismoilov, S.Sodiqov, T.Ayupov, T.Ahmadaliyev, R.Azizov, G.Sultonova, L.Ibragimov kabilar samarali mehnat qilmoqdalar.

Ular tomonidan ishlangan kitob grafikasi, plakatga doir asarlar mazmuni va g'oyaviyligi bilan diqqatga sazovordir. V.Aruxning "Koinot-inson", G.Boymatovning "Urgutda to'y", A.Mamajonovning "Kurash", "Eski shahar", T.Ayupovning "Mavzu", T.Ahmadaliyevning "Senga omad, Temur", L.Ibragimovning "Osiyo okeani", "Bahor", M.Sodiqovning "Buxoro", S.Redkinning "Qadimiy Samarqand", N.Kolonovning "Kulol", Sh.Muhammadjonovning Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit-turk" nomli asariga ishlangan tasviriy asarlarida ko'rish mumkin. Mustaqillik davrida ijod erkinligi paydo bo'lib, uning natijasida turli uslub, yo'nalishda, istalgan mavzuda asar yaratish mumkinligi o'zining ijobiy samarasini bera boshladi. B.Jalolovning aksariyat ishlari tasviriy san'atning mahobatli rangtasvir turiga mansub bo'lib, rassom bu yo'nalishda Qarshi musiqa drama teatri binosiga (1981 y), Toshkentagi kinochilar uyiga (1982 y), "Turkiston" saroyiga (1993 y), "Bahor" konsert zaliga (1982 y), Qo'qon teatri binosiga (1987 y) va boshqa bir qator ijtimoiy va madaniy binolar inter'eriga devoriy bezak ishlarini bajargan.

Bugungi kunda avlodlardan avlodga o'tib keluvchi Milliylikimizni va madaniyatimizni saqlab qolishda muxim ahahamiyatga ega bo'lgan soxalardan biri bu tasviriy san'at yo'nalishi bo'lib bunda ranglar jilosida rassom, O'zbekistonning tarixi, madaniyati va milliyligini asarlari orqali yosh avlodlarga yetkazib kelmoqda. Milliylik va madaniyatimizni saqlab qolish uchun bugungi avlod rassomlarixam ijodida vatan tuyg'usi, tarixi va turmush tarzini asarlarida ifoda etishi lozim.



Shokiraliyev Asliddin "O'zbekiston poytaxti"


Bu asarda ko'rishimiz mumin bo'lgan, O'zbekistonning milliy va zamonaviylikni uyg'unlashtirgan arxitektura asosida qurilgan binolar aks ettirilgan. Shahar ko'rinishi ijtimoiy xayot tarzi va poytaxtning go'zalligi ko'rsatib berilgan.



Shokiraliyev Asliddin. "Xiva oqshomi"

Ko'xna Xorazimning Xiva shaxri memoriy yodgorligi, tarixi va sa'natini aks ettiruvchi shaxar. Vohaning turmush tarzidan ovoz beruvchi gumbazli milliy minoralar

2020-yilda asarda yaqqol aks ettirilgan.



Shokiraliyev Asliddin. "Qo'qonda bahor"

Farg'ona viloyati Qo'qon shaxrida joylashgan Xudoyorxon saroyi milliy naqshinkor, hashamatli, tarixiy memoriy obida bo'lib, asarda vodiyning salqin, solim tabiati 2019-yilda aks ettirilgan.



Shokiraliyev Asliddin. "Farhod va shirin"

Alisher Navoiyning "Xamsa" asarining "Farhod va shirin" dostoniga ishlangan kompazitsiya asar. Bunda miniatura yo'nalishiga reallik aralashtirilgan xolda guash texnikasi yordamida ishlangan asar.

San'atkor tanlab olgan voqelikni o'z asarida mazmunan qayta yaratishda xarakat va holatni shunday joylashtiradiki, natijada asarning mazmuni jalb qiluvchanlik xususiyati kuchayadi.

Tasviriy san'atning jamiyatdagi tutgan o'rni.

Yangi avlodni barkamollik ruhida tarbiyalashda ularda nafasat tuyg'usi ijodkorlik qobiliyatini o'stirish uchun tasviriy san'at predmeti va sa'nat sohasidan unumli foydalanib, shaxs ongida ma'naviy dunyoqarashini boyitib boradi.

Yosh avlodni tasviriy san'at orqali estetik tarbiyalashda uning iste'dodli namoyondalari va ularning ijod namunalarini badiiy jihatdan o'rganish lozim.

Tasviriy san'atning ma'naviy xayotdagi o'rni va ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov aytganidek "Ma'naviyat-insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishiga chorlaydigan, odanning ichki dunyosi, irodani baquvvat, imon etiqodni butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

Milliy istiqlol ma'naviyati va shu ruhdagi madaniyat masalasi muhim tarbiyaviy muammolarni hal etishda asos bo'lib xizmat qiladi. Milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongiga singdirish jarayonida sa'nat alohida o'rin tutadi. Shuningdek, sa'nat inson ma'naviy dunyoqarashini kengaytiruvchi, uni shaxs sifatida tarbiyalovchi vositalardan biri xisoblanadi.

Xulosa

O'rganishlar davomida quydagilarni xulosa qilishim mumkin. Mazmundorlik orqali u inson manaviyatini tobora to'laroq qamrab ifodalashga harakat qiladi O'zbekiston milliyligi, tasviriy san'ati tarixining ajralmas qismidir. O'zbekiston sa'nati boy merosga ega. Xozirgi zamonda esa bizning rassomlarimiz ko'pgina milliy uslubdagi asarlari bilan butun dunyoga tanilib qolgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1.P.Xasanov."Tasviriy sa'nat asoslari" Toshkent-2009 y.
- 2.M.Nazarov. "Estetika asoslari" Toshent 2005 y.
- 3.I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch - Toshkent Ma'naviyat, 2008 y.